ISTIQBOLLI ZAFARON O'SIMLIGI (*CROCUS SATIVUS L*) NI ANDIJON VILOYATIDA O'STIRISHNING BIOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

[1]X.Z.Olimova, [2]V.M.Mahmudov

[1]2-bosqich magistranti, Farg'ona davlat universiteti, [2]Biologiya fanlar nomzodi, dotsent, Farg'ona davlat universiteti

https://doi.org/10.5281/zenodo.10932410

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Andijon viloyatida intraduksiya qilingan zafaron o'simligining vegitativ va generativ organlarini morfologik tuzilishi haqida dastlabki natijalar berilgan.*

Kalit so'zlari: *Iridaceae oila, C.sativus L, tabiiy gibrid, vegitativ usul, generativ organlar, o'zlashtiruvchi ildizlar, introduksiya, ontogenez.*

Аннотация. *В статье дано начальное сведении про морфологическое строение вегитативно генеративных органов интрадуцинованого в Андижанскую область растения шафран.*

Ключевые слова: *Семейство Iridaceae, C.sativus L естественный гибрид, вегитативный метод, генеративные органы, усваевающие корни интрадукция, онтогенез.*

Annotation. *This article presents premilinary results about the morphological structure of vegetative and generative organs of saffron introduced in Andijan region.*

Keywords: *Iridaceae family,, C.sativus L.natural hybrid, vegetative method,generative organs, absorptive roots introduction, ontogenesis*

Kirish..Dunyoda aholi sonining ortishi dorivor, xushbo'y-ziravor va oziq-ovqat o'simliklar xomashyosining xilma-xilligini ko'paytirish hamda ulardan tabiiy dori-darmon vositalari va yangi turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, mavjud dori-darmon vositalarining 60-65% ni dorivor o'simliklar xomashiyolaridan olingan preparatlar tashkil etib, bugungi kunda jahonda dorivor, oziq-ovqatbop va xo'shbo'y ziravorlik xususiyatlarini saqlovchi o'simliklarni tanlash va yetishtirish, keng mashtabda plantatsiyalarni tashkil etish va ishlab chiqarishga jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zafaron o'simligini vegitativ organlarini morfologik tuzilish

Ekma zafaron (C.sativus L.) – gulsapsardoshlar Iridaceae oilasi Crocus L. turkumiga mansub, tabiiy gibrid, urug' hosil qilmaydigan ko'p yillik tugunakpiyozli o'simlik. Bu o'simlik faqat vegitativ usulda ko'payadi.Shuning uchun introduksiya sharoitida o'simlikning ontogenez jarayonini vegitativ ko'payishi natijasida hosil bo'ladigan piyozlarining o'sish va rivojlanish dinamikasiga nisbatan o'rganildi. C. sativus tugunakpiyozlarining ildizlari 3 turga ajraladi:

1. O'zlashtiruvchi ildizlar – ekilgan tugunakpiyozlar asosidan o'sib chiquvchi ildizlar hisoblanib, ular ingichka va deyarli uzun bo'ladi.

2. Kontraktil ildiz – bitta yo'g'on va qisqa ildiz hisoblanib, yangi tugunakpiyozlarning o'sish kurtagi asosidan rivojlanadi. Ular tuproqga chuqur joylashish uchun xizmat qiladi.



1-rasm. Kontaktil ildizlar

3. Kontraktil-o’zlashtiruvchi ildizlar – ular kontraktil ildizga qaraganda ingichka va uzun bo’lib, ular ona tugunakpiyozida kontraktil ildiz hosil bo’lgan joy yaqinida rivojlanadi (To’xtayev va boshq,2018)



2-rasm. Kontaktil o’zlashtiruvchi ildizlar

Barglari tasmasimon tuzilishga ega bo’lib, bargning uzunligi birinchi unib chiqqan davrida 5-10sm ga teng bo’ladi,ikkinchi yili bahorda barglarining uzunligi 25-30 sm ga yetadi. Barglari piyozlar ekilgandan so’ng 20-22 kundan so’ng yerning ustgi qismida o’simta unib chiqadi va 3-4 kundan so’ng nishning uchki qismlarida o’simlikning barglari ko’rina boshlaydi.

1-jadval. Zafaron o’simligini bargining morfologik xususiyatlar

Bargining morfologik tavsifi	Zafaron
Shakli	Tasmasimon
Uzunligi, sm	25-30
Eni, mm	2-2,5
Bir tupidagi barglari soni	5-9 ta
Tuklar bilan qoplanish darajasi	Barglari tuklar bilan qoplanmagan
Metamarfozi	Kuzatilmaydi
O’simlikning yashash sharoiti ekologik guruhi	Mezofit o’simlik

Zafaron o’simligini generativ organlari ontogenezni generativ davrida paydo bo’ladi. Generative davrga ko’pincha birinchi yillidan boshlab kiradi. Zafaronning bir tupida bitta gul hosil qiladi. Gullarida 2-3ta qizil rangda urug’chi,4 tadan chagchilar bor.



3-rasm. Zafaron gulining changchi va urug’chilari

2-jadval. O’simlikning kunlik gullash dinamikasi

Gul ochilgan va changlangan vaqt	Ochilgan gullar soni	Gullarning holati
8:00	180 tupdan 10 ta	2-3 kun saqladi gullarini
12:00	5-6 ta	To’kilmadi
17:00	4-5 ta	To’kilmadi

Xulosa. Andijon viloyatida zafaron o’simligi introduksiya qilish jarayonida uning vegitativ organlari (ildiz, barg, piyozbosh) va generative organini morfologik tuzilishini amaliy tajriba asosida yer maydonida piyozboshlarini ekib o’stirish orqali o’rgandim va Andijon viloyatida ham Zafaron o’simligini introduksiya muvafaqiyatli kechmoqda. Birinchi yilli ekilgan piyozboshlar generative davrga o’tib gulladi. Kelgusida ushbu o’simlikni katta maydonlarga ekilib, ulardan farmaseftika sohasiga qo’llashni tavsiya etish rejalashtirilmoqda, chunki bu o’simlik istiqbolli tur hisoblanadi.

REFERENCES

1. B.Y.To’xtayev Shafran (zafaron) yetishtirish ,,Tasvir’’ nashriyot uyi Toshkent – 2021,
2. A.Askerov. Shafran. – Baku: Azerneshr,1934.
3. A.V.Mahmudov *Crocus* turkumi turlarining O”zbekiston sharoitida introduksiyasiva bioekologik xususiyatlari: Biologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2017.
4. G.Chichiricco Sterility and improvement of saffron crocus // Caryologia,1990
5. B.Y. To’xtayev, A.V. Mahmudov, Sh.Sh. Xurramov O’zbekistonda ekma zafaron (шафран посевной – *Crocus sativus L*) introduktsiyasi va plantatsiyalarini tashkil etish. Toshkent, ,,Navro’z’’ nashriyoti,